

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ONKOLOGIK KASALLIKLAR TARQALISHINING
O‘ZIGA HOS HUSUSIYATLARI****ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ОНКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ В
РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН****SPECIFIC FEATURES OF THE SPREAD OF ONCOLOGICAL DISEASES IN THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

*Nematov Abdurashid Abdug‘affor o‘g‘li - PhD, dotsent
Kuchkarova Bibirajab Kurambov qizi
Ernazarova Hurmatoy Hamroyevna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filiali*

Nematov A.A., Kuchkarova B.K., Ernazarova H.H. (2025). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ONKOLOGIK KASALLIKLAR TARQALISHINING O‘ZIGA HOS HUSUSIYATLARI. ActaCAMU, 4(12), 234–239. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17950916>

Аннотация. *Dolzarbligi: So‘nggi yillarda dunyo miqyosida o‘sma (onkologik) kasalliklarining ko‘payishi sog‘liqni saqlash tizimi oldida dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ushbu holat O‘zbekiston Respublikasi uchun ham istisno emas. O‘sma kasalliklarining erta aniqlanishi, profilaktika va davolash choralari samaradorligini oshirish maqsadida, kasallanish darajasining yillik o‘zgarishlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsad: Yurtimizda onkologik kasalliklar tarqalganlik xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish. Material va usullar: Tadqiqotni olib borishda Sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy statistik ma‘lumotlaridan foydalangan holda tahlil qilingan. Yurtimizdagi onkologik kasalliklar bo‘yicha mavjud vaziyat Sog‘liqni saqlash vazirligi va sanitariya-epidemiologiya xizmatlarining 2018-2023-yillardagi ma‘lumotlari asosida baholangan. Olingan natijalar. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha o‘sma kasalliklarining umumiy kasallanish darajasi 2018-yilda 569,4 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 614,1 nafargacha oshgan. Ushbu davr mobaynida kasallanish darajasi o‘rtacha 7,8 % ga ortgan bo‘lib, bu o‘sish tibbiyot muassasalarida erta tashxis qo‘yish imkoniyatlarining kengaygani bilan izohlanadi. Xulosa. 2018–2023-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida o‘sma kasalliklarining umumiy kasallanish darajasi asta-sekin oshib bormoqda. Ayniqsa, yirik sanoat va aholi zich joylashgan hududlarda yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan. Ushbu jarayon sog‘liqni saqlash tizimi oldida profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, aholining erta skrining ko‘riklarida ishtirokini oshirish va zamonaviy diagnostika usullarini keng joriy etish zarurligini taqozo etadi.*

Калит so‘zlar. *Saraton, epidemiologiya, xavf omillari, umumiy kasallanish, birlamchi kasallanish, xavfli o‘smalar.*

Аннотация. *Актуальность: В последние годы рост заболеваемости опухолевыми (онкологическими) заболеваниями во всем мире стал одной из актуальных проблем, стоящих перед системой здравоохранения. Данная ситуация не является исключением и для Республики Узбекистан. Для повышения эффективности раннего выявления, профилактики и лечения опухолевых заболеваний важен анализ ежегодных изменений заболеваемости. Цель: Изучение и анализ особенностей распространенности онкологических заболеваний в нашей стране. Материалы и методы: Исследование проведено с использованием официальных статистических данных Министерства здравоохранения. Оценка текущей ситуации с онкологическими заболеваниями в нашей стране проводилась на основе данных Министерства здравоохранения и санитарно-эпидемиологических служб за 2018-2023 годы. Результаты. Общая заболеваемость опухолевыми заболеваниями в Республике Узбекистан в 2018 году составила 569,4, тогда как в 2023 году этот показатель увеличился до 614,1. За этот период заболеваемость в среднем выросла на 7,8%, что объясняется расширением*

возможностей ранней диагностики в медицинских учреждениях. Заключение. Общая заболеваемость онкологическими заболеваниями в Республике Узбекистан постепенно увеличивается в течение 2018–2023 годов. Особенно высокие показатели регистрируются в крупных промышленных и густонаселенных районах. Этот процесс требует от системы здравоохранения усиления профилактических мероприятий, расширения охвата населения ранними скрининговыми обследованиями и широкого внедрения современных методов диагностики.

Ключевые слова: онкологические заболевания, эпидемиология, факторы риска, общая заболеваемость, первичная заболеваемость, злокачественные новообразования.

Abstract. Relevance: In recent years, the increase in the incidence of tumor (oncological) diseases worldwide has become one of the pressing problems facing the healthcare system. This situation is no exception for the Republic of Uzbekistan. In order to increase the effectiveness of early detection, prevention and treatment of tumor diseases, it is important to analyze annual changes in the incidence rate. **Purpose:** To study and analyze the characteristics of the prevalence of oncological diseases in our country. **Materials and methods:** The study was conducted using official statistical data from the Ministry of Health. The current situation with oncological diseases in our country was assessed based on data from the Ministry of Health and sanitary and epidemiological services for 2018-2023. **Results.** The total incidence of tumor diseases in the Republic of Uzbekistan was 569.4 in 2018, while in 2023 this figure increased to 614.1. During this period, the incidence rate increased by an average of 7.8%, which is explained by the expansion of early diagnosis capabilities in medical institutions. **Conclusion.** The overall incidence of cancer in the Republic of Uzbekistan is gradually increasing during 2018–2023. Especially high rates are recorded in large industrial and densely populated areas. This process requires the healthcare system to strengthen preventive measures, increase the participation of the population in early screening examinations, and widely introduce modern diagnostic methods.

Keywords: cancer, epidemiology, risk factors, overall incidence, primary disease, malignant tumors

Kirish. Ko‘plab saraton turlari chekish, ortiqcha tana vazni, spirtli ichimlik iste‘moli, qizil go‘sh tiste‘moli va boshqa omillar kabi o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xavf omillari bilan sababiy bog‘liqdir [1]. Yaqinda ikki tadqiqot AQSh [1] va Buyuk Britaniyada [2] Aholi uchun Attribut qilinadigan Ulush (Population Attributable Fraction, PAF) ni baholadi. AQShda 2014 yilda 30 yosh va undan katta bo‘lgan kattalar orasida kuzatilgan barcha yangi saraton holatlarining 42 foizi potensial o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xavf omillariga bog‘liq ekani aniqlangan. Eng yuqori PAF sigaret chekishga to‘g‘ri kelgan, undan keyin ortiqcha tana vazni, so‘ng spirtli ichimlik iste‘moli — bu omil ayollar orasida uchinchi, erkaklar orasida esa to‘rtinchi yirik sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, qizil va qayta ishlangan go‘sh tiste‘moli kolorektal (ichak) saratonining mos ravishda 5,4% va 8,2% holatlariga sabab bo‘lgani aniqlangan [1].

Buyuk Britaniyada esa 2015 yilda barcha yangi saraton holatlarining 37 foizi potensial o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan xavf omillariga bog‘liq deb baholangan. AQShdagiga o‘xshash tarzda, sigaret chekish eng katta ulushni tashkil etgan, undan keyin ortiqcha vazn va semizlik kelgan — bu esa Buyuk Britaniyada saratonning ikkinchi eng katta oldini olish mumkin bo‘lgan sababidir [2]. So‘nggi o‘n yil ichida Buyuk Britaniyada barcha saraton turlari bo‘yicha (Kasalliklarning Xalqaro Tasnifi, 10-nashri [ICD-10] C00–C97, C44 bundan mustasno) yoshga moslashtirilgan kasallanish darajasi 7% ga oshgan, bu o‘shish ayollar orasida 8%, erkaklar orasida esa 3% ni tashkil etgan [3, 4]. Keyingi yigirma yil ichida esa Buyuk Britaniyada barcha saraton turlarining umumiy kasallanish darajasi yana 2% ga oshishi prognoz qilinmoqda; bu sekinroq o‘shish sur‘ati, qisman, 1970-yillardan beri chekish darajasining pasayib borayotgani bilan izohlanadi — bu omilning ta‘siri eng yaqqol tarzda kelgusi o‘n yilliklarda namoyon bo‘ladi [5].

Xavf omillariga ta‘sir qiluvchi o‘zgarishlar saraton kasallanishidagi o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, saraton tashxisining yaxshilanishi va ma‘lumotlarni to‘plash

tizimining rivojlanishi esa nisbatan kichikroq rol o'ynaydi. Ushbu xavf omillarining hissasini miqdoriy baholash orqali, xavf omillariga ta'sirni kamaytirish yoki ularni bartaraf etish orqali erishish mumkin bo'lgan saraton kasallanishining kamayishi miqdorini aniqlash mumkin.

Onko-epidemiologik tadqiqotlar atrof-muhit omillarining o'sma kasalliklarining paydo bo'lishidagi rolini aniqladi. JSSTning saraton kasalligining oldini olish qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'smalarning 90,0% ga yaqini atrof-muhit omillari bilan, qolgan 10% esa virusli, genetik va boshqa endogen omillar bilan bog'liq ekanligi ta'kidlandi [6]. Boshqa bir tadqiqotlarda ham kanserogen atrof-muhit omillari va turmush tarzi omillari xavfli o'smalarning 90-95% ni keltirib chiqaradi degan xulosalarga kelingan [7, 8]. Shuning uchun atrof-muhit omillariga qarab saraton kasalligining tarqalishini baholash va ularni oldini olishga qaratilgan profilaktik chora- tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqsad: Yurtimizda onkologik kasalliklar tarqalganlik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish.

Material va usullar. Mazkur tadqiqotda 2018–2023-yillar oralig'ida tibbiyot-profilaktika muassasalarida qayd etilgan o'sma kasalliklarining umumiy kasallanish darajasi (har 100 ming aholiga nisbatan) O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari kesimida tahlil qilindi. Mamlakatimizda mavjud vaziyat Sog'liqni saqlash vazirligi va sanitariya-epidemiologiya xizmatlarining 2018-2023-yillardagi rasmiy ma'lumotlari asosida baholandi. Ma'lumotlarga statistik ishlov berish va tahlil qilishda standart Microsoft Excel dasturidan foydalanildi. Ko'rsatkichlar intensiv va ekstensiv ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi.

Olingan natijalar. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'sma kasalliklarining umumiy kasallanish darajasi 2018-yilda 569,4 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 614,1 nafargacha oshgan. Ushbu davr mobaynida kasallanish darajasi o'rtacha 7,8 % ga ortgan bo'lib, bu o'sish tibbiyot muassasalarida erta tashxis qo'yish imkoniyatlarining kengaygani bilan izohlanadi. Hududlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, 2018–2023-yillar davomida aksariyat viloyatlarda o'sma kasalliklari bo'yicha o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Toshkent shahri eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 2018-yilda 1390,9, 2023-yilda esa 1115,9 nafar kasallanish qayd etilgan.

Bu yuqori ko'rsatkich poytaxtda diagnostika va ro'yxatga olish tizimining rivojlanganligi bilan bog'liq. Samarqand viloyatida 2018-yilda 969,7, 2023-yilda esa 967,5 nafar kasallik holati qayd etilgan. Ushbu viloyatda ko'rsatkichlar nisbatan barqaror saqlanmoqda. Namangan viloyatida o'sma kasalliklari 2018-yildagi 618,6 dan 2023-yilda 762,6 gacha oshgan bo'lib, bu sezilarli o'sish hududda profilaktik ko'riklar va diagnostika faoliyatining faollashganidan dalolat beradi. Andijon viloyatida ham o'sish kuzatilgan — 2018-yilda 239,1, 2023-yilda 310,6. Navoiy viloyatida 2018-yilda 422,6, 2023-yilda esa 396,3 bo'lib, biroz kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'rsatkich 2018-yildagi 290,2 dan 2023-yilda 350,2 gacha oshgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida esa ko'rsatkichlar nisbatan past bo'lib, 2023-yilda mos ravishda 502,4 va 357,0 ni tashkil etgan ($p < 0,005$) (1-jadval).

Umuman olganda, 2018–2023-yillar mobaynida aksariyat hududlarda o'sma kasalliklari bo'yicha o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Ayrim yillarda (xususan, 2020-yilda) COVID-19 pandemiyasi sababli tibbiy muassasalarga murojaatlar sonining kamayishi tufayli kasallanish qayd etilishida vaqtincha pasayish kuzatilgan. Olingan natijalar O'zbekiston hududlari bo'yicha o'sma kasalliklarining notekis taqsimlanganini ko'rsatadi. Toshkent shahri, Samarqand, Namangan va Toshkent viloyatlari eng yuqori kasallanish darajalarini qayd etgan. Bu holat aholining zich joylashuvi, sog'liqni saqlash infratuzilmasining rivojlanganligi hamda diagnostika imkoniyatlarining kengayganligi bilan izohlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida esa nisbatan past ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, bu ayrim hollarda diagnostika imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2018–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida o'sma kasalliklarining umumiy kasallanish darajasi asta-sekin oshib bormoqda. Ayniqsa, yirik sanoat va aholi zich joylashgan hududlarda yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Ushbu jarayon sog'liqni saqlash tizimi oldida profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, aholining erta skrining ko'riklarida ishtirokini oshirish va zamonaviy diagnostika usullarini keng joriy etish zarurligini taqozo etadi.

1-Jadval

O‘zbekiston Respublikasida o‘sma kasalliklarining umumiy kasallanish dinamikasi: 2018–2023-yillar tahlili (Har 100 ming aholiga nisbatan)

Hududlar	Yillar					
	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
O‘zbekiston Respublikasi	569,4	499,3	510,1	505,0	497,8	514,1
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	290,2	301,1	308,4	333,1	347,2	350,2
Andijon viloyati	229,1	244,0	277,8	272,2	290,7	310,6
Buxoro viloyati	487,2	535,9	554,1	556,5	571,1	582,7
Jizzax viloyati	360,9	421,3	363,5	346,9	447,0	460,2
Qashqadaryo viloyati	417,2	317,6	308,4	322,8	333,3	357,0
Navoiy viloyati	422,6	573,0	578,5	583,2	419,5	396,3
Namangan viloyati	618,6	713,0	688,2	702,8	740,3	762,6
Samarqand viloyati	969,7	352,1	496,2	387,8	508,5	367,5
Surxondaryo viloyati	399,4	368,4	395,5	427,6	389,7	502,4
Sirdaryo viloyati	445,0	460,9	456,1	484,5	494,4	422,6
Toshkent viloyati	574,1	627,0	592,0	612,9	637,3	674,5
Farg‘ona viloyati	491,0	424,2	464,2	463,6	417,4	364,3
Xorazm viloyati	425,0	407,7	577,8	437,6	450,1	471,4
Toshkent shahri	1 390,9	1 341,5	1 103,3	1 181,3	871,7	1 115,9


Ushbu tadqiqotda 2018–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan o‘sma kasalliklarining umumiy kasallanish darajasi, birlamchi kasallanish holatlari hamda yomon (xavfli) o‘smalarning tarqalishi dinamikasi tahlil qilindi. Ma’lumotlar tibbiyot-profilaktika muassasalarida rasmiy ro‘yxatga olingan statistik ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Grafik ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston bo‘yicha umumiy o‘sma kasallanish darajasi 2018-yilda 569,4 nafar (har 100 ming aholiga nisbatan) bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 514,1 nafarni tashkil etgan. 2019–2022-yillar oralig‘ida ayrim yillarda biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2023-yilda qayta o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Umumiy kasallanish darajasining 2018-yildan keyingi pasayishiga COVID-19 pandemiyasi davrida aholining tibbiy muassasalarga murojaat qilish faolligining kamayishi, profilaktik ko‘riklarning qisqarishi va diagnostika kechikishlari sabab bo‘lgan deb taxmin qilinadi.

Birlamchi o‘sma kasallanish holatlari 2018-yilda 134,3 nafarni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 125,0 nafarga tushgan. Eng past ko‘rsatkich 2020-yilda (121,5) qayd etilgan. Ushbu kamayish o‘sha yili pandemiya sababli diagnostika jarayonlarining vaqtincha to‘xtab qolganini tasdiqlaydi. 2021-yildan boshlab birlamchi kasallanish holatlarida asta-sekin o‘shish qayd etilgan bo‘lib, bu aholining onkologik ko‘riklarga jalb etilishining ortib borayotganini bildiradi.

Yomon (xavfli) o‘smalar bo‘yicha kasallanish darajasi 2018-yilda 71,0 nafar bo‘lgan, 2023-yilda esa 74,6 nafarga yetgan. Bu ko‘rsatkich 2019-yildan boshlab nisbatan barqaror o‘shish dinamikasini saqlagan. Xavfli o‘smalarning eng past ko‘rsatkichi 2020-yilda (65,0) qayd etilgan, bu esa pandemiya davrida onkologik kasalliklarning erta aniqlanishi kechikkanidan dalolat beradi. 2021–2023-yillarda esa diagnostika imkoniyatlari tiklanishi bilan bir qatorda, aholining tibbiy xabardorligi ortgani sababli aniqlangan holatlar soni ham ko‘paygan ($p < 0,01$) (1-rasm).

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida 2018–2023-yillar mobaynida o‘sma kasalliklarining umumiy darajasi nisbatan barqaror bo‘lib, umumiy pasayish fonida birlamchi va xavfli o‘smalar bo‘yicha asta-sekin o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu holat sog‘liqni saqlash

tizimida diagnostika va skrining dasturlarining qayta tiklanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim yillarda qayd etilgan pasayishlar tashxis qo'yish jarayonidagi kechikishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'sma kasalliklarining bunday dinamikasi aholini profilaktik tekshiruvlardan o'tkazish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va erta tashxis qo'yish tizimini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida o'sma kasalliklarining umumiy, birlamchi va yomon (xavfli) o'smalar kesimidagi dinamikasi (2018–2023-yillar tahlili) (har 100 ming aholiga nisbatan)

Tadqiqotimizda O'sma kasalliklarining yosh guruhleri kesimida umumiy kasallanish dinamikasini tahlil qildik va baholadik. Unga ko'ra jami kasallanishlarning eng yuqori darajasi bu 2018, 2020 va 2023- yillar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Yosh bo'yicha taqsimlanishini ko'rganimizda barcha yoshlar bo'yicha kasallanish ulushi ham 2018 yilda eng yuqori darajani tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. 2020 yilda esa umumiy kasallanish ko'rsatkichi o'smirlar orasida yuqori bo'lgan (135,8). Ushbu ko'rsatkich 2023 yilga kelib kattalar orasida yuqori natijani tashkil qilgan (750,4) (2-jadval).

2-jadval

O'sma kasalliklarining yosh guruhleri kesimida umumiy kasallanish dinamikasi: 2018–2023-yillar tahlili (Har 100 ming aholiga nisbatan)

Yillar	Jami	Bolalar (14 yoshgacha)	O'smirlar (15-17 yoshlar)	Kattalar
2018 y	569,4	80,7	134,7	810,4
2019 y	499,3	68,9	111,3	712,5
2020 y	510,1	70,6	135,8	728,8
2021 y	505,0	66,3	112,5	727,1
2022 y	497,8	70,1	114,8	720,3
2023 y	514,1	68,0	110,5	750,4

Xulosa. 2018-2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida o'sma kasalliklarining umumiy kasallanish darajasi asta-sekin oshib bormoqda. Ayniqsa, yirik sanoat va aholi zich joylashgan hududlarda yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Ushbu jarayon sog'liqni saqlash tizimi oldida profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, aholining erta skrining ko'riklarida ishtirokini oshirish va zamonaviy diagnostika usullarini keng joriy etish zarurligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Islami F., Goding Sauer A., Miller K.D., Siegel R.L., Fedewa S.A., Jacobs E.J., McCullough M.L., Patel A.V., Ma J., Soerjomataram I., et al. Proportion and number of cancer cases and deaths attributable to potentially modifiable risk factors in the United States. *CA Cancer J. Clin.* 2018;68:31–54. doi: 10.3322/caac.21440.
2. Brown K.F., Rungay H., Dunlop C., Ryan M., Quartly F., Cox A., Deas A., Elliss-Brookes L., Gavin A., Hounsome L., et al. The fraction of cancer attributable to modifiable risk factors in England, Wales, Scotland, Northern Ireland, and the United Kingdom in 2015. *Br. J. Cancer.* 2018;118:1130–1141. doi: 10.1038/s41416-018-0029-6.
3. Cancer Research UK. Cancer Awareness Measure (CAM) Key Findings Report; 2014 & Trends Analysis (2008-2014) (Cancer Research UK, London 2016).
4. Cancer Research UK. Incidence trends over time for all cancers combined. <http://www.cancerresearchuk.org/health-professional/cancer-statistics/incidence/all-cancers-combined>.
5. Smittenaar CR, Petersen KA, Stewart K, Moitt N. Cancer incidence and mortality projections in the UK until 2035. *Br. J. Cancer.* 2016;115:1147–1155. doi: 10.1038/bjc.2016.304.
6. J. Higginson Cancer etiology and prevention Persons and High Risk of Cancer. *An Approach to Cancer Etiology and Control*, Acad. Press, New York (2005), pp. 385-398.
7. M.P. Longnecker Alcohol consumption and risk of cancer in humans: an overview *Alcohol*, 2 (12) (2005), pp. 87-96.
8. G.L. Kelsey, L. Bernstein Epidemiology and prevention of breast cancer *Annu. Rev. Public Health*, 17 (2006), pp. 47-67